Fuqaro murojaatiga ko’ra davra suhbati o’tkazildi

Texnika fanlari nomzodi, dotsent Hamidullo Madazizovning “Yer sayorasida tirik organizmlarning paydo bo’lishi” mavzusidagi ochiq davra suhbatini tashkillashtirish to’g’risidagi O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasiga yo’llagan murojaatiga asosan Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya institutida ilmiy tashkilotlararo ochiq davra suhbati tashkil etildi.

Davra suhbatida Mikrobiologiya, Astronomiya va Zoologiya institutlari ilmiy xodimlari qatnashdilar.

Davra suhbatini Mikrobiologiya instituti direktori, professor Qahramon Davranov ochib berdi. Shundan so’ng davra suhbatini Hamidullo Madazizovning “Yer sayorasida tirik organizmlarning paydo bo’lishi” mavzusidagi ma’ruzasi bilan davom ettirdi.

Ma’ruza yakunida davra suhbati ishtirokchilari tomonidan o’zaro muhokama qilindi va o’z fikrlarini bildirishdi.